


## Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi


### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

#### yanvar-mart 2019 yil

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 5 190,8 mlrd. so`mni yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 207,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 3 802,3 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 martaga oshdi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa, asosiy kapitalga investitsiyalarning 26,8 % ni yoki 1 388,4 mlrd. so`m o`zlashtirildi.







O'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag'i 578,1 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,1% ni, Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,2 % ni yoki 320,0 mlrd.so'm o'zlashtirildi. Shuningdek, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning eng katta ulushini O'z.R kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlar 71,9 % ni tashkil qilmoada.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy investitsiya va kreditlari mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga 3 732,6 mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 521,2 marta oshdi. Bu yirik investitsion loyihalar bilan bog'liq bo'lib, "UZBEKISTAN GTL" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tozalangan metan gazidan sintetik suyuq yoqilg'ini ajratib olish uchun mo'ljallangan uskunalar keltirilmoqda. Respublika yo'l jamg'armasi tomonidan Ko'kdala-Chim-G'uzor liniyalarida qurilish ishlari olib borilmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 1,7 % i yoki 65,0 mlrd. so'm Respublika byudjeti mablag'lariga to'g'ri kelmoqda.







Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 11,1 %i yoki 578,1 mlrd. so'm korxonalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Bu yirik korxonalar tomonidan hisobot davrida To'rtsari makonidagi № 12 va 14-sonli quduqlarni burg'ulash obyektlari ishga tushirilganligi bilan izohlanadi. Aholi mablag'lari hisobidan 320,0 mlrd. so'm yoki 6,2 % ini, tijorat bank kreditlari tomonidan jami investitsiyalarning 2,6 %i yoki 137,6 mlrd. so'm, Xorijiy investitsiyalar tomonidan esa asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,8 % yoki 351,6 mlrd. so'm investitsiyalar jalb qilindi.



## Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-mart oylarida)

	mlrd.so`m	o`shish sur`ati foizda	yakunga nisbatan foizda
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>5190,8</b>	<b>207,1</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>3802,3</b>	<b>532,8</b>	<b>73,3</b>
➤ byujet mablag`idan	65,0	398,2	1,7
➤ davlat maqsadli fond mablag`lari	-	-	-
➤ tiklanish va taraqqiyot fondi mablag`lari	-	-	-
➤ bolalar sportini rivojlantirish	-	-	-
➤ xukumat kafolati ostida chet el kreditlari	3732,6	521,2 m	98,2
➤ toza ichimlik suvi fondi	4,7	-	0,1
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>1388,5</b>	<b>78,8</b>	<b>26,7</b>
➤ korxonalarining o`z mablag`lari	578,1	91,3	41,6
➤ axoli mablag`lari	320,0	103,1	23,1
➤ to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar	351,6	57,3	25,3
➤ tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	138,8	66,9	10,0

**Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 26,7 % ni yoki 1388,5 mlrd. so`mni tashkil etdi.**


**O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag`i 578,1 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,1 % i o`zlashtirildi.**

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xududlar kesimida

(2019 yil yanvar-mart oylarida)

	Jami		Shu jumladan qurilish-montaj ishlari	
	mlrd.so`m	o`shish sura`ti foizda	mlrd.so`m	jamiga nisbatan ulushi foizda
➤ Viloyat bo`yicha:	5 190,8	207,1	1786,9	34,4
<b>shaharlar:</b>				
➤ Qarshi	206,5	68,5	139,1	67,4
➤ Shahrisabz	16,7	135,5	5,8	2,8
<b>tumanlar:</b>				
➤ G`uzor	112,4	44,6	87,5	77,8
➤ Dehqonobod	364,3	71,6	335,9	92,2
➤ Qamashi	43,4	267,0	19,8	45,5
➤ Qarshi	142,2	276,7	25,5	18,0
➤ Koson	49,4	127,3	14,0	28,3
➤ Kitob	61,4	148,7	29,3	47,8
➤ Mirishkor	29,1	130,5	13,5	46,4
➤ Muborak	240,8	404,1	67,0	27,8
➤ Nishon	3768,6	411,5	985,0	26,1
➤ Kasbi	30	178,0	16,6	55,3
➤ Chiroqchi	34,9	74,9	18,1	51,8
➤ Shahrisabz	45	101,4	17,6	39,0
➤ Yakkabog`	46,1	25,8	12,2	26,5

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish sur`atlari hududlar kesimida**




Hududlar kesimida Nishon va Muborak tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning Nishon tumanida 72,6 % i, Muborak tumanida esa 4,6 % i o'zlashtirildi.

Dehqonobod tumanida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 7,1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Shahrisabz shahrida esa, bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi ya'ni – 0,3 %.





## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (viloyatdagi ulushi)



- G'uzor   ● Dehqonobod   ● Qamashi   ● Qarshi t   ● Koson   ● Kitob   ● Mirishkor
- Muborak   ● Nishon   ● Kasbi   ● Chiroqchi   ● Shahrisabz   ● Yakkabog'
- Qarshi sh   ● Shahrisabz sh



Hududlar kesimida Nishon tumani va Muborak tumanlari yetakchilik qilayotgan bo'lsada, Kitob va Qamashi tumanidagi investitsion faollik natijasida yuqori o'sish suratlari qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.


Bu hududlarda 01.04.2019 yil holatida xorijiy korxonalar bilan hamkorlikda "Sement ishlab chiqarish" hamda "Gidroponika usulida issiqxonalar"ni qurish yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirgi kunda qurilish montaj ishlari olib borilmoqda.



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi


	Jami	Shu jumladan mulkchilik shakllari bo`yicha	
		davlat	nodavlat
<b>Jami, mlrd.so`m</b>	<b>5 190,8</b>	<b>97,5</b>	<b>5 093,3</b>
➤ qurilish-montaj ishlari	1 786,9	67,2	1 719,7
➤ mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo`jalik jixozlari	2 873,7	20,8	2 852,9
➤ boshqa xarajatlar	530,2	9,5	520,7

### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (mlrd.so`m)



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

*(umumiy xajmga nisbatan foiz xisobida)*




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida elektr energiyasi, gaz va bug' tarmog'i yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3744,1 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 72,1 % i o`zlashtirilgan.

## *Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi*


Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng katta qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan bo`lib, yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 4 695,4 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 90,5 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 259,0 mlrd.so`mni tashkil etdi va viloyatda jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 5,0 % ini tashkil etdi. Qolgan 4,5 %, yani 236,4 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.



## ***Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar***


Joriy davrda 8 339,2 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 54,4 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.



Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 351,6 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 3 732,6 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi. To`g`ridan - to`g`ri xorijiy investitsiya hisobidan joriy davrda 346,8 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lib, jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 6,7 % ni tashkil qildi.



# Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 221,6 ming kv.m, bo'lgan 1483 ta turar joy obyektini yangi qurilib ishga tushirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 124,4 ming kv.m. bo'lgan 919 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 42,1 ming kv.m. 335 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Qamashi tumanida ishga tushirilgan 26,2 ming kv.m. va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 11,8 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Shahrisabz shahrida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,5 % ni tashkil etdi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun ma'sul: A.Isaev**

*aloqa telefoni:* 75-221-32-47